

# JIZZAX SHAHAR MARKAZIY KO‘CHALARI KESISHGAN CHORRAHASINING MAVJUD HOLATINI TAHLIL QILISH.

*Xaytbayev Ergash Baxtiyor o‘g‘li*

*Jizzax Politexnika instituti assistenti*

*Dinakaran Sabapathy ,*

*Sambhram, B.tech fakulteti o‘qituvchisi\*

*Urazaliev Akbar*

*O‘qituvchi Sh.Rashidov tuman 2-son KHM*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Jizzax shahridagi ma’lum chorrahadagi holat tahlil qilindi va yo‘l sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha bir nechta chora tadbirlar haqida xulosalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Harakat sharoiti, ko‘rsatkichlar, yo‘l transport hodisalari, chorrahalar, yo‘l kengligi, o‘tkazuvchanlik.

**Abstract.** In this article, the situation at a certain intersection in the city of Jizzakh was analyzed and conclusions were drawn about several measures to improve road conditions.

**Keywords:** Traffic conditions, signs, road traffic incidents, intersections, road width, throughput

Harakat sharoiti – yo‘lda avtomobillar oqimi harakatlanayotganda havoiqlim, transport oqimi va yo‘l sharoiti omillarining «avtomobil-haydovchi» tizimiga ko‘rsatadigan ta’sirining umumiy bir ko‘rinishida ifodalanishidir. Yo‘l sharoiti deganda avvalom bor, avtomobil yo‘llarining geometrik o‘lchamlari va transport-foydalanish sifatleri yig‘indisidan iborat ko‘rsatkichlarni tushinamiz. Yo‘l sharoitini tashkil qiluvchi ko‘rsatkichlar ikki guruhga: doimiy va o‘zgaruvchan ko‘rsatkichlarga bo‘linadi;

Doimiy ko‘rsatkichlarga;

-yo‘l qatnov qismi va cheti kengligi, harakat tasmasi soni yo‘l qarshiligi, bir sathda kesishish va tutashishlar, sun‘iy inshootlar va muhandislik qurilmalari;

O‘zgaruvchan ko‘rsatkichlarga;

-yo‘l qatnov qismi va cheti holati, rejada va bo‘ylamada ko‘rinish, yo‘l ravonligi, tishlashish sifati va qoplama g‘adir budirligi, yo‘l poyi va to‘shamasi mustahkamligiga bog‘liqdir.

Avtomobillashtirish o‘zining shubhasiz ijobiy natijalarini berish bilan birga, ayrim salbiy holatlarning o‘shishiga, shu jumladan yo‘l-transport hodisalari sonining o‘sib ketishi kuzatilmoqdaki, buning oqibatida xalq xo‘jaligiga juda katta zarar etkazmoqda.

*Yo‘l-transport hodisasi deb* – yo‘lda xarakatlanayotgan loaqal bitta transport vositasi ishtirokida sodir etilib, odamlar o‘limi, jarohatlanishi, transport vositasi, yo‘l inshootlari, yuklarning shikastlanishi natijasida moddiy zarar keltirgan hodisalarga aytiladi.

Respublikamizda amaldagi me‘yoriy hujjatlarga ko‘ra yo‘l-transport hodisalari quyidagi turlari mavjud:

*To‘qnashuv* – bunga transport vositalarini qarama-qarshi tomonidan, bir yo‘nalishda yoki yon tomondan xarakatlanayotgan vaqtdagi to‘qnashuv kiradi.

*Ag‘darilib (to‘ntarilib) ketish* – xarakatlanayotgan transport vositasini o‘z turg‘unligini yo‘qotib ag‘darilishi.

*To‘xtab turgan transport vositasini urib ketish* – xarakatlanayotgan transport vositasining xarakatlanmayotgan transport vositasiga urilishi.

*To‘siqlarga urilish* – transport vositalari qo‘zg‘almaydigan to‘siqlarga (ko‘prik tayanchiga, stolba va machta tayanchiga, yo‘l to‘siqlariga, daraxtlarga va hokazo) urilishi.


*Piyodalarni bosib (urib) ketish* – transport vositalari piyodalarni urishi yoki piyodalar transport vositalariga urilishi.

*Velosipedchini bosib (urib) ketish* – transport vositasi velosipedchini bosishi (urishi) yoki velosipedchi transport vositasiga urilishi.


*Aravani bosib (urib) ketish* – xarakatlanayotgan transport vositasi xarakatlanayotgan aravani yoki aravaga qo‘shilgan hayvonni urib ketishi.

Yuqoridagi yo‘l transport hodisalari Jizzax shahrida qay darajada ekanligini tahlil qilish maqsadida ba’zi chorraxalarda kuzatuv ishlarini olib bordik. Shundan, A.Navoiy-O.Azimov ko‘chalari chorraxasi Jizzax shahrining shimoli-sharqida joylashib muxim ahamiyatga ega chorraxa bo‘lib, O.Azimov ko‘chasi Jizzax shaxridan A376 magistraliga chiqish uchun xizmat qilsa A.Navoiy ko‘chasi (eski nomi “Xalqlar do‘stligi prospekti”) esa shahar markaziy ko‘chalaridan biri hisoblanadi. Chorraxaning ahamiyatligining yana bir sababi bu chorraxaning bir tomonida O.Azimov ko‘chasining tugash joyi hisoblanadi. Bu ko‘cha shahar “Temir yo‘l stansiyasiga” borish va “Ko‘k bozor” bozoriga chiqish imkonini beradi.

Chorraxa O.Azimov ko‘chasi tomonidan turli xildagi xizmat ko‘rsatish binolari mavjud. A. Navoiy ko‘chasi tomonidan esa aholi turar joylari joylashgan. Chorraxaning har tomonida manzarali daraxtlar bor.




*1-rasm. A. Navoiy – O.Azimov ko‘chalari chorraxasi*



2-rasm. A. Navoiy ko'chasi chorraxaga tutash qismining ko'ndalang kesimi

A. Navoiy ko'chasi yo'l qoplamasi tamirlangan hech qanday chuqurliklar mavjud emas. A.Navoiy ko'chasi boshlanish qismi hisoblangan chorraxaning boshqa qismi talab darajasida emas, turli o'lchamdagi chuqurliklar mavjud va yo'l qoplamasining ahvoli qoniqarsiz. O.Azimov ko'chasining chorraxa bilan tutash qismi ham chuqurliklarga ega . A. Navoiy ko'chasi 3,5m dan 2 polasali qarama-qarshi yo'nalishlardan iborat. Yo'lning umumiy eniligi  $3.5 \cdot 4 = 14\text{m}$ . O.Azimov ko'chasi ham huddi shunday enilikda. A. Navoiy ko'chasining chorraxaga tutash qismi 3,5m li qarama-qarshi yo'nalishdan iborat ( $3.5 \cdot 2 = 7$ ).



3-rasm. O.Azimov ko'chasining chorraxaga tutash qismi ko'ndalang kesimi

Chorraxaning jihozlanishi: yo'l belgi chiziqlari 1.1 (qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositalarini ajratuvchi), 1.2 (enli sidirg'a chiziq), 1.3 (to'rt va undan ko'p harakatlanish bo'lagi bo'lagi bo'lgan qarama-qarshi yo'nalishdagi transport oqimini ajratadi), 1.5 (bir yo'nalishli va qarama-qarshi yo'nalishli transport oqimini ajratadi) 1.12 (to'xtash) 1.14.1 (zebra) ko'rinmaydi o'chib ketgan.

Chorraxa tartibga solingan chorraxa bo‘lib, u svetafor va 2.1 (asosiy yo‘l), 2.4 (yo‘l bering) va 5.16.1 5.16.2 (piyodalar o‘tish joyi) belgilari bilan jihozlangan.

Statistik malumotlarga qaraganda, uch yil davomida Jizzax shaharlarida sodir etilgan 1731 yo‘l-transport hodisasi oqibatida 480 nafar odam halok bo‘lgan, 1775 kishi turli tan jarohatini olgan.

Jizzax shaharlaridagi yo‘l transport hodisalarini yillar bo‘yicha tahlil qilganimizda, yo‘l transport hodisasi soni va jarohatlanganlar soni yildan yilga o‘sganligini, halok bo‘lganlar esa kamayib borgan.

Umumiy yo‘l-transport hodisalarining 25-35% shaharlar miqyosiga to‘g‘ri keladi. Sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarining 18-21% chorrahalarda, 79-82% chorrahalaridan tashqarida sodir etilmoqda.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, yo‘l-transport hodisalarining asosiy sababini, ya‘ni har 5 ta yo‘l-transport hodisasidan 3 tasi yoki umumiy yo‘l-transport hodisasining turlari bo‘yicha 65% piyodani bosib ketishi hamda yo‘l-transport hodisasi qatnashchilari bo‘yicha 31% piyodaning aybi bilan sodir bo‘lmoqda.

Xulosa o‘rnida yuqorida biz kuzatuv olib borgan chorrahada umumiy shahar hududida sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalarining ba‘zilari sodir bo‘layotganligi sababli qayta rekonstruksiya qilish, ya‘ni yo‘l chiziqlarini qayta chizish va ba‘zi yo‘l belgilarini daraxtlar ko‘rinish ehtimolligini pasaytirmasligi uchun ularni qirqish va cheklangan tezlik belgilarini o‘rnatishni tavsiya qilamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avtotransport vositalari servisi. Darslik. M.A.Ikramov, Q.M.Sidiqnazarov, A.A.Abduraxmonov va boshq. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. - 266 b.
2. Аюкасова Л. К. Основы проектирования станций технического обслуживания легковых автомобилей. Учебное пособие. – Оренбург: ГОУ ОГУ, 2003. - 106 с.
4. Sh.E.Islomov Avtotransport tarmog‘i korxonalarini loyihalash (O‘quv qo‘llanma) II qism. T.:«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 218b.

5. Sh.E.Islomov va b. 5310600 –“Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti)” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun Bitiruv malakaviy ishini bajarish, tayyorlash va rasmiylashtirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma, Jizzax 2022 y. 28 b.

6. Boliqul o‘g‘li M. U. et al. Road traffic safety and its impact on the development of modern roadtransport expertise //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 7. – C. 157- 164.